

**Abdulla Qodiriy**

# **JINLAR BAZMI**

*Hikoyalar*

Toshkent  
«Cho'pon» nashriyoti  
2004

*Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy*

*Aziz bolalar!*

Qo'lingizdag'i kitobga buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning yosh kitobxonlarga bag'ishlangan ikki hikoyasi kiritildi. Ularda xalqimizning milliy urf-odatlari, ba'zi sirli hodisalar haqidagi tasavvurlari mahorat bilan tasvirlangan. Adibning serjilo ohanglarga boy tili, tiniq obrazlari, quvnoq kulgisi, yorqin tasviri o'quvchini maftun etadi.

Mazkur kitob adib tug'ilgan kunning 110 yilligiga bag'ishlab chop etilmoqda.

## **JINLAR BAZMI**

*(Mavhum hikoya)*

Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtida mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma», deb tangriga yolborib qo'yari edim.

Kecha xolam bizning uyga mehmon bo'lib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib o'lтирар va o'tgan-ketgandan so'zlashar edilar. So'z aylanib kelib yana o'sha jinlar, parilar, devlar to'g'risida to'xtadi. Otam bo'lsa o'zi ko'rgan «jinlar bazimi»ni so'zlashdan yana tiyilolmadi. Otamning bu hikoyasi, yuqorida so'zlaganimcha, mening uchun ortiqcha vahimali bo'lganidan darrov o'rnimga kirib, ko'rparmaga burkanib yotib oldim. Otam menga bir kulib qaradi-da, «jinlar bazimi»dan so'z ochdi:

— «Yangi uylangan vaqtlarim edi. Tiriklik bilan ovora bo'lib, bog'ning poyasiga o'z vaqtida qarolmadim. Bir kim payt topib boqqa bordim, tok juda ham o'sib ketgan, bardidan<sup>1</sup> hatto ikki qarichgacha o'sib chiqqan edi. Shuning uchun ishkommlarni shitobroq tikkaytirishga to'g'ri kelar edi. Boqqa bora boshlaganimning to'rtinch'i kuni kechasi bir oz yomg'ir yog'ib chiqdi. Go'yo yomg'irni kutib turgan toklar yana ham o'sib ketdilar, sho'ralar bardi ustiga engashib, ishkom ustiga olmaganim uchun go'yo mendan arazlagandek ko'rinar edilar. Men nima bo'lsa ham poya ishini bugun bitirmoqchi bo'ldim. Ertaga tokni ochmasam, ham o'zim uchun, ham tok uchun jabr qilg'an bo'larman, deb o'yladim.

Istakni<sup>2</sup> ozroq olgan ekanman. Oxirpeshin<sup>3</sup> vaqtiga istak tamom bo'lib qoldi. Istak uchun bozorga boray desam bir ishkomgina yamoq qoldi, undan keyin bozordan qaytib chiqquncha kech ham bo'ladi. Nima qilish kerak? Uzoq o'ylab turmay, tut, qayrag'och va tol kabi daraxtlardan istak chilpidim.

<sup>1</sup> *Bardi* — qamish o'zagining tagida yer bag'irlab o'sadigan barglari, uni o'rib kelib, tokni yotqizib qo'ndoqlagandan so'ng sovuq urmasin uchun ustiga yopiladi.

<sup>2</sup> *Istak* — tol, tut, qayrag'ochning burab yumshatilgan ingichka novdalari, uni tok bag'azlarini bog'lashda oson ishlataladi.

<sup>3</sup> *Oxirpeshin* — soat 4 lar atrofi, asr namozidan oldinroq payt.

Chilpigan istaklarni yig'ishtirguncha ham bir choy qaynar vaqt o'tdi. Istaklarni belbog'imga qistirib ishkomga kirdim.

Qosh qorayib, qorong'i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim. Yuz-ko'llarimni yuvib, salachoponimni kiyganimda obdon qorong'i bosgan edi. Bog' ishlagani kelgan qo'shnilaridan hech birisi qolmagan, hamma shaharga jo'nab ketgan, ko'chada chigirkalarning chirillashi, qurbaqalarning qurullahidan boshqa tovush yo'q edi.

Men bog'dan chiqqanda xuhton bo'lmasa ham shunga yaqinlashib qolgan edi. Qorong'ida turtinib-surtinib yo'lga tushdim».

Otam xolamga xitoban dedi:

— «Siz bilasiz, bizning bog'ning tevaragi quyuq daraxtlik maydonlar bilan o'rالgan. Katta ko'chaga tezroq chiqib olish uchun men shu maydonlardan yurdim. Maydon nihoyatda qorong'i va vahimali edi. Lekin men qorong'ida beparvo borar edim, yolg'iz qorong'ida turtinib qiyalar edim. Katta ko'chaga chiqib olmog'im uchun orada bittagina Hamdam xumdonchining chakalagi qoldi».

Otam hikoyasini shu yerga keltirib taqagach, men ko'rpamga yaxshiroq burkanib oldim. Otam so'zida davom etdi:

— «Bir-ikki qadam Hamdam xumdonchining maydoniga tomon yurdim... Yiroqdan kelgan yorug'likni sezib, tevaragimga qaradim-da, hayron bo'lib qoldim... Qarshimdag'i maydondan o'tkir nur sharpasi tushar edi. Bugina emas, kishilarning chag'ir-chug'ur so'zlashib kulushlari, gijdang-gijdang bilan childirma, ora-chora dutor, tanbur, g'ijjak kabi sozlarning zaif, ammo yurakni qitiqlayturgan tovushlari eshitilar edi.

Men tong qotib bir necha vaqt turib qoldim. Darhaqiqat, boyqushlar uyasi bo'lgan bir vayronada bunday voqeanning yuz berishi kishini albatta hayron qilar edi. Holbuki, men shu kun ertalab ham bu maydondan o'tgan edim. Bu yerda biror ziyofat bo'laturgan bo'lsa, erta bilan uning bir asari ko'rinar edi. Yosh-yalanglar kunduz kuni harakat qilganlar-da, xara-ko'chalar<sup>4</sup>, deb fikrimdan o'tkazdim.

Men bazm bo'layotgan maydon orqali o'tmoqchi bo'lib, devor nahrasidan<sup>5</sup> oshib tushdim... O'h-ho'-o'-o', maydon ichi kunduzgidek yorug', daraxt shoxlariga chiroqlar osilgan, yerlarga ipak gilamlar yozilgan. Bir chekkaga katta oq samovorlar qo'yilgan, bir tarafda katta qozonlar qurilgan, jaz-biz davom etar edi. Maydonning o'rta yerida yuz chog'liq yosh-qari kishilar qurshalib o'ltirib, dutor, tanbur, childirma, nog'oralar chalib bazim qilar edilar.

Shu choqda bir kishi oldimga yugurdi va bazmdagilarga qichqirib:

— Mana, O'sar aka ham keldi! — dedi.

Bazmdagilarning hammalari ham menga qaradilar.

— Keling, keling O'sar aka, poyadan qutuldingizmi? — deyishdilar.

O'sha onda ularga nima deb javob berganimni hozir eslayolmayman, chunki juda ham garangsigan edim.

Ular meni o'z ixtiyorimga qo'ymay, sudrab, tortib to'rga chiqardilar. Odadta majlisga kirib o'ltingandan keyin fotiha o'qilar edi. Biroq ularning har turli savol va muomalalari bilan ovora boiib, fotiha o'qish ham yodimdan chiqqan. Bir oz esimni yig'ib olgandan keyin majlisdagilarni ko'zdan kechirib chiqdim. Ko'plarini qaysi joydadir ko'rgandek bo'laman... Aniqlab qarasam umrimda ko'rmagan-tanishmagan yot kishilarga o'xshaydilar. Faqat ularning men bilan xuddi tanishlarcha muomala qilishlari, otimni atab chaqirishlari, qilgan ishlarimni so'rab, hatto boyagi istak chalpib yurganimni bilishlari — meni juda ham ajabga qoldirgan edi.

Oradan kimdir, bilmadim, g'olibo majlisning boshlig'i bo'lsa kerak:

— O'sar akamga dasturxon yozilsin! — dedi. To'rda o'tirganlardan yana birisi unga qarshi chiqdi:

— Ilgari bir bazm qilib olaylik, so'ngra dasturxonga hammamiz baravar qaraymiz! — dedi va menga yuzini o'girib:

<sup>4</sup> Xara-ko'cha — bekorchi.

<sup>5</sup> Nahra — rahna — devorning o'pirilgan joyi.

— Siz ham bazmni sog'inib qolgandirsiz. Ilgari bazm qilaylik-a? — deb so'radi.

Mening qornim och bo'lsa ham, mehmonligim vajhidan uning fikriga qo'shilishdan boshqa choram yo'q edi.

Sozandalar sozlarini to'g'riley boshladilar. Sozlardan tanbur, dutor, g'ijjak, rubob, chang, nay va daf kabilar menga tanish bo'lsalar ham, yana men ko'rmagan va bilmagan bir qancha sozlar ham bor edi. Sozlar sozlandilar, bir xil bosiq og'ir mashq chalina boshladi.

Mashq sihrlik edi... Men yerga singib ketarlik darajada ezilmoqda, asirlanmoqda, ichimdan bir to'lqin kelib o'zimni qayerga urarimni bilmay entikmakka boshladim. Sozandalar hamon haligi bosiq mashqni sekin-sekin avjga chiqarib bordilar... Axir chidab turolmadim, piq-piq yig'lay boshladim. Nega va nima uchun yig'lar edim, buni o'zim ham bilmayman. Uzoq yig'ladim. Nihoyat mashq bitdi. Bitdi, lekin meni ham o'zi bilan birga bitirdi. Ikki tegirmon toshi orasida yanchilgan kishidek majruh edim. Qimir etgali majolim yo'q edi. Ko'zimni ochdim. Majlisdagilarning barchasi ham go'yo bir ko'zdan mening holimga kulib qarab turar edilar. Men o'z holimdan uyalib yerga boqdim.

Sozlar yana ikkinchi mashqni chalish uchun tayyorlanar edilar. Lekin men haligidek mashqni eshitishdan bezor bo'lgan edim. Yuragim gup-gup uring qoldi. Boyagidek mashqdan yana birini tinglasam ehtimol ajalimdan burun o'lar, yer bilan yakson bo'lар edim.

Ikkinci mashq boshlandi. Mashq boshlanishi bilan butun vujudimga hayot suvi yugurdi. O'zimda allaqanday bir lazzat his qildim. Mashq g'oyatda shodlikli edi. Bu niashqqa ne deb ism berishni bilmayman.

Shu vaqt o'rtaga o'n besh-o'n olti yoshlik bir qiz kelib kirdi. Uning sochlari jingila-jingila, yuz va ko'zları do'nduq, ustida yashil baxmaldan burma qilib tikilgan chirolyi delvagay kiyimi bor edi. Bir necha qadam chalishib o'tada yurgan edi, oyog'idagi qo'ng'iroqlari jing'irab ketdi. Qiz mashq bilan baravar o'ynay boshladi.

Mashq davom etar, go'yo nafis soz tovushining yeli o'yinchi qizni g'ayri ixtiyoriy bir harakatga keltirardi. Dunyoga bir shodlik, bir ruh yog'adi, go'yoki o'lliklar tirilarlar, yerlar silkinarlar, tog'-toshlar kularlar, yulduzlar ucharlar, daraxt shoxlari titragandek bo'lalar.

Axir shodliklarim yuragimga sig'madi. O'z erkim bilan emas, allaqanday bir kuch o'tirgan joyimdan turg'uzib yubordi. Qizning yoniga kirib men ham o'ynab ketdim».

Oyim bilan xolam o'zlarini tutolmay kulib yubordilar. Mening bo'lsa ko'z o'ngimga dadamning o'ynagandagi ahvoli kelib to'xtagandek bo'ldi.

Dadam davom etdi:

— «Shunday, men o'ynay boshladim. Nima bo'lsa ham qiz bilan birdek o'ynamoqqa tirishaman. Qiz men bilan bir oz o'ynab turgandan keyin o'rtadan chiqib bir chetga ketdi. Lekin men o'yinni to'xtatmadim, to'xtatish xotirimga ham kelmagan edi. Kishilar qars uring turadilar va meni masxaralagandek qiyqirib, og'iz-burunlarini qiyshaytiradilar, lekin men ularga parvo qilmay, o'yinni davom ettiraman...»

Bir vaqt allanarsaga turtinib yerga yiqildim. O'zimni o'nglab olib yana o'yinga harakat qilg'an edim, tag'in mukkamcha yiqildim.

Bir qancha vaqt dan so'ng o'nglanib o'rnimdan turdim va ko'zimni ochib tevaragimga qaradim...

Orada na kishilar, na sozlar va na boshqalar — hech kim, hech gap yo'q!.. Qop-qorong'i maydon, bir ariq ichida turibman...

\* \* \*

Men dadamning bu ko'rgan hodisasini muallim afandiga so'zlagan edim, kuldil:

— Vahima, xayolat! — dedi.

— Chindan ham vahimmi, vahim bo'lsa kishida qanday voqi' bo'ladi? — deb so'rigan edim, afandim:

— Kelasi juma bolalar o'rtasida bu to'g'rida ma'lumot beraman, sen ham shu majlisda hozir bo'lsang vahimning qanday voqi' bo'lishini bilib olasan! — dedi.

Men albatta juma kuni maktabga borib afandimizdan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtingiz bo'lsa juma kuni siz ham boringiz.

## ULOQDA<sup>6</sup>

*Hikoya*

### I

Kecha dadamdan so'rab qo'yganim uchun bugun akam ham «kerak emas, borma» degan jekirishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.

Dadam bilan oyim:

— Oyog'ing olti, qo'ling yetti bo'lib qoldiyov! — deb kulishib qoldilar.

Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqqamni yalang'ochlab uyoq-buyog'ini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi... Shuning bilan mening ko'nglimga: «Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar chopayki, hamma meni: «Turg'un chavandoz», deb atasin degan orzular tushadi.

Ulug' hayitdag'i hayitlikka oldirgan mo'g'or egarcha<sup>7</sup> bilan g'alaticha qilib toy Chamni egarladim. Tog'amga yalinib-yalpog'lanib oldirgan o'russi yuganni artib-surtib soldim-da, o'zim chetraqdan turib kam-ko'stini kuzatdim:

— Quyushqoni ham o'rnida, egar ham yaxshi qo'ngan, qorin bog'i ham jips, yukan ham to'ralarnikidek! Lekin umuldirig'inining yo'qligi biroz ko'nglimni g'ash qildi. Anchagina o'ylab turganimdan keyin, akamning yukan uchun asrab qo'ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto'ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.

Endi toy Cham juda ham gjijinglab, xuddi to'ralarnikidek bo'lib ketdi. Uyoq-buyog'ini supurgandan keyin ustunga qantarib qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulimni, o'rischa shimni, amirkon etikni, baxmal to'ppini kiyish... Ana shundan keyin otga minsak chin to'racha bo'lamiz-da!

Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymoqchi bo'lsam, ko'zini ola-kula qilib: «Qaqshag'ir, kir qilasan, to'y-po'yga borganda kiyarsan!» — deb qarg'ay boshlaydi. Ozgina «shayton yig'isi» qilmaguningcha ish o'nglanmaydi. Bu gal ham o'shandog' yig'idan qilib olganimdan keyin, kiyimlarimni kiyib, shohi qiyiqchamni belimga bog'lab oldim. Oyimga bildirmasdan sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqib, tashqariga chiqdim.

Xizmatchi go'sht keltirib turgan ekan. Otxonadagi qora qashqani ko'chaga chiqarib turishga buyurib, go'shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim.

Oyim orqamdan:

— Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, uloqchilar orasiga kirib, biror hodisaga yo'liqma, o'rtoqlaring bilan bir chetda turib tomosha qil! — deb javrab qoldi.

Xizmatchidan otni olib mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergen edim, jonivor shataloq otib ketdi. Xizmatchining: «Ha, barakalla! Chavandoz!» degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko'tarib ketayozdi.

### II

Chuqr ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir io'da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. Ularning ba'zilari akamning o'rtoqlari edilar, men bilan so'rashdilar. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim.

— Bizning Mahkamboy uloqqa juda ham ishqiboz-da! — dedi haligi yigit.

— Yo'l bo'lsin, boyvachcha? — deb so'radi mendan yana beri. Men uyalinqiradim:

<sup>6</sup> Bu hikoya 1915-yilda yozilgan edi. Bolalik dayrimning yodgori bo'lgani uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim (A. Q.).

<sup>7</sup> *Mog'or egar* — Samarqand egari ham deyiladi. Asosan otni salt minganda yoki uloq chopganda otga uriladi, odatdag'i egardon kichikroq bo'ladi.

— Uloqqa! — dedim.

— Barakalla, chavandoz! Barakalla, Turg'un chavandoz! — deyishdi ular. Ayniqsa meni «chavandoz» deb atashlari juda ham kayfimni keltirib, ichimdan: «Otangga rahmat», — deb qo'ydim.

Biz bir durkum otliq boramiz. Jonivor toy Cham boshqa otlardan qolishmaydi va goho ularning otlaridan o'tib ham ketadi. Toy Cham o'ta qolsa: Otingiz juda ham yo'rg'a ekan-da, boyvachcha», — deb menga piching otishadilar.

Ha kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham so'z qotib qo'yadilar. Men uyalaman. So'z urinib yana Mahkam akam ustida to'xtaldi:

Shu choqqacha ko'p uloqchi ko'rdim, lekin Mahkamdek uloqqa serzavqini ko'rmadim! — dedi bittasi.

— Mahkam boyvachchaning ota-bobosi uloqchi bo'iib kelgan-da! — dedi Sobir tegirmonchining o'g'li.

— Axir, o'n ikki yashar ukasini ko'rmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi!

Bu so'zdan mening a'zoyi badanim jimirlashib ketdi va oz qoldiki kulib yuborsam.

— Dadam Mahkamning bobosining uloq chopshini gapiraversa kishi hayron qoladi, — dedi yana bir mo'ylovi shopdek yigit, — yuz, ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'iz uloqni ajratib chiqar ekan-da!

— U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! — dedi Sobir tegirmonchining o'g'li.

— Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo'lsa, sen ham uloqning piri bo'lasan! — dedi yana biri.

Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdam... Shu paytda orqamizdan ot shatalog'i eshitilib, qayrilib qaragan edik, oldiga bir ola echkini o'ngargan, ko'kragi ochiq, yaktakchan, saman otliq bir yigitni ko'rdik. U bizga yetib to'xtadi va hamma bilan ot ustida turib so'rashdi.

— Bu hafta yordamlashasiz-da, karvon! — dedi kulimsirab To'g'on aka.

— Ha, bo'lmasam-chi, sizdek og'aynilarga ko'maklashmasam bo'ladimi! — dedi haligi yigit va to'zumsizlandi: — Qani, ildamroq yuringlar!

Yigit bilan birgalashib ketdik. Biroz borgach, bizning otimizning oyog'i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi. Biz, faqat uning: «Men tezroq boray», — degan so'zini eshitib qoldik.

Endi so'z haligi chavandozning oti to'g'risida boshlandi.

— Valadning oti juda ham chopqir-da, — dedi To'g'on aka, — uloqchi bo'Iganingga yarasha shundaqangi oting bo'lsa!

— Xuddi bodirafrrafdek uchadi! — dedi mo'ylovi shopdek yigit.

Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. Kulgi sababiga tushunmasam-da, men ham ularga qo'shilib kulishdim.

— Bodirafrrafmi, bodisarsar? — deb so'radi undan allakim.

### III

Biz, akamga «Do'mburovot» guzarida uchradik. Akamlar samovarchiga palov damlab qo'yish uchun o'zaro pul yig'ib berishgandan keyin, biz yana yo'lga tushdik.

Dalaning ko'chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko'rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o'ttiz uloqchi birdaniga yo'l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi Io'killatib boradi.

Ko'chani to'zon qoplagan, kishi kishini tanimaslik holga kelgan. Men bo'lsam uyga qaytib borganimda: «Kiyimlaringni pes qilibsan!» — deb oyimning qarg'ishidan qo'rqib boraman.

Talaygina yo'l bosgandan keyin uloq chopiladigan joyga yetdik. O'zi, to'rt tarafi ko'z ilg'amaytirg'on darajada katta va sayhon bir yer ekan. Bu joyga juda ko'p xalq yig'ilgan, bundagi uloqchi otliqlar bilan tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo'q.

Katta sadaqayrag'ochning tagida ikkita bordondek samovarga o'tin qalab qaynatadilar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to'rt qop bodringni bir-birisiga tirab qo'yib: «Mirza qiron bodiring! Kasirkusir bodiring!» deb maqtashadilar.

Akamlar sadaning ostiga — samovarchining palosiga otdan qo'ndilar. Kun qizig'ida turish qiyin bo'lgani uchun, men ham toycham bilan sadaqayrag'ochning bir bag'riga borib turdim. Tevarakdag'i kishilar bir menga va bir toychamga qaraydilar. Men uyalib toychamning yolini tarayman. Tevaragimdag'i kishilar orasida vag'ir-vug'ur gap, to'zumsizlanib uloqning boshlanishini kutadilar. Birisi: «Bugun uloq qizimaydi», — desa, ikkinchisi: «Bekor aytibsan, bugun uloq juda ham qiziydi, chunki Salim bilan Murod chavandozlar kelar emish», — deydi. Yana biri: «Ha, ha! Agar Salim kelsa, uloq juda ham qizir ekan!» — desa, allakim: «Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko'tarmaydi, hayt desa bas!» — deydi. Tag'in birov: «Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko'rinnmay qoldi, ana o'shanisiga chavandoz bolasi bas kelolmas edi!» — desa, yana allakim: «o'lma, o'lma! Men ham shuni ko'pdan beri ko'rmayman, girdig' umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a?» «Balli, balli! Otangga rahmat, xuddi o'sha yigit, qancha so'rog'lasam hech kimdan daragini bilolmadim!»

Shu yigitning ustida anchagina janjal bo'lib oldi, biri: «o'lib ketgan», — desa, ikkinchisi: «Tirik!» — deb qichqiradi. Ularga yana birisi qarshi turib: «Ot bosgan, doktorxonada o'lgan!» — deydi, so'firoq bir odam: «Birovga yomon nafas qilmanglar!» — degan edi, allaqaysi kishi: «o'lsa o'lgandir, bunga nima janjal!» — deb qo'ydi, tag'in birov: «Bekor ham o'ltiribmiz-da!» — deb kului. Yana: «Sirasi-sirasi!» Tag'in shovqin-suron, yana: «Ha, ha!» Tag'in: «Yo'q, yo'q»...

Bir kishining: «Ana uloq keldi!» deb yuborishi bilan hamma tip-tinch bo'lib, uloqqa qarab qoldi. Yana bir ozdan keyin: «Ulog'i yosh ekan! Yaxshi chavandozga uchurvoq ham bo'lmaydi!» «Shunisi tuzuk, shunisi!» — deganjanjal boshlagan ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o'ynatib kirishi hammaning tovushini o'chirib qo'ydi va sekin-sekin: «Salim chavandoz!» «Murod chavandoz!» degan shivirlashishlar eshitilib qoldi.

- Qorasi Salimmi, cho'tiri?
- Salimning bilagi kuchlikka o'xshaydi! Chavandozlamning birisi ko'k chovkar va ikkinchisi ola otga mingan bahaybat chapani yigitlar edilar. Bular kelgandan keyin xalq chidamsizlanib qoldi:
- Ana endi chin uloq ko'rasan! — deyishadilar.
- Bukun qiyomat ulog'i bo'lar ekan! — deb boshlarini chayqatib qo'yadilar.
- Murodning otini ko'r, xuddi qanoti borga o'xshaydi.
- Ko'k chovkarni aytasanmi, to'ruqnimi?
- Har ikkalasiga ot yetmaydi, ikkovi ham yaxshi zot!
- Qulog'i chimirilgan ot chopqir bo'iadi!
- Qulqida gap yo'q, gap zotda!
- Yo'q, yo'q! Serkishnovda, o'zim sinab ko'rdim!
- Qora ot chopqir bo'ladi, deganlar, qorasi yaxshi, qorasi!
- Dadam rahmatlik ot olganda tuyog'iga diqqat qilar edi, gap tuyoqda.

Bahslashadilar, har kim o'z yonidagi bilan talashadi. Men ham shu to'g'rida o'ylab, ularning aytgan nishonlarini qora qashqamdan qidirib topsam suyunib, topmasam kuyunib turaman.

Mahallamizdag'i o'rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqlilar ham otlarini lo'killatib kelib qoldilar. Biz to'rtovimiz otlarimizni qator qo'yib, uyoq-buyoqdan gaplashib turdik. Nurxon dadasidan ola yo'rg'ani so'raganda qilgan bahonasini aytib kuladi. Haydar soqov saman otining yo'lda Shokir mishiqlining baytaliga qarab kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladi. Kulishamiz. Shokir bo'lsa burnini torta-torta: «Uyalib ketdim, bundan so'g'un biya minmayman», — deb qizarib-bo'zardi. Otimning umuldirig'iga ularning havaslari kelib, bahosini so'rashdilar, men: «o'n besh tanga», — deb, kumush qamchini ham ko'rsinlar uchun o'ynagansimon egarning qoshiga «taq-taq» urib qo'yaman. Ular: «Qani, qani, kumushmi?» — deb qamchinni qo'limdan olib ko'radilar. Men sekingina boshimni qimirlatib, o'zimda allanima sezinaman. ularning otlariga, o'zimnikiga, kiyimlariga, kiyimimga qarab,

o'zimni ulardan allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov tutila-tutila... «Kelinglar, bir choptiraylik», — dedi. Nurxon ko'nmasa ham tortib olib ketishdi. Ulaming orqasidan Shokir ham baytalini yogurtirdi. Chidab turib bo'lmas ekan, ular orqasidan toychamga bir qamchi berib yuborgan edim, jonivor ikki yamlab bir yutub, o'n odimda ularni yo'lda qoldirib ketdi. Anchagina uzoqlashganidan so'ng orqamdagilarga qaragan edim, hammaning ko'zida men ekanman. Yana qattiqroq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib otimni to'xtatdim, talay vaqtdan keyin ular otlarini lo'killatishib yonimga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqirligi to'g'risida so'zlashdik. Nurxon, otining chopmasligiga akasining issiq holda suv bergenini sabab qilib ko'rsatdi. Haydar soqov bo'lsa Eson ko'knorining o'g'lini so'ka-so'ka:

— Bozorga un uchun borayotganidma bexos tom boshidan guvala tashlab yubordi. Shundan beri qamchi bilan yuz ming ursang ham jonivor qulog'ini chimirib, hurkib tura beradi! — dedi.

Mening qashqacham to'g'risida, Haydar aytadi: «Sening, — deydi, — otingga hech ot bolasi yetmaydi!» — deydi. Nurxon aytadi: «Otdan sening baxting bor ekan, lekin, — deydi, — yemhashakni o'zing ber, xizmatkorga ishonsang otingni buzib qo'yadi, o'rtoq, men senga bir aytib qo'ydim», — deydi.

Shu yerda uzoqqina so'zlashib turgandan keyin yana otini keyinga qarab qo'ydik. Tag'in ulardan o'zib ketdim. Xalqqa yaqinlashgandan keyin «meni ham tanib qo'ysinlar» deb qashqachamni ustustiga qamchilashim bormi, shamol-da, shamol... endi xalq bir o'zimga va bir qora qashqamga tikila boshladi. Men bo'lsam, «meni endi taniysizlar!» deb toyimning yolini qamchi sopi bilan tarab tura berdim.

#### IV

Tomoshachilar orasida yana ola-g'ovur qo'pti: «Ana, uloqning solig'ini yig'ayotibdilar!», «Uloq hozir boshlanadi!», «Murod chavandoz ham turdi!», «Salim qalpog'ini kiydi!», «Ro'zi qassob» uloqni bo'g'izlamoqchi, pichog'ini qayrayapti!», «Bovvachchalar ham qo'zg'alishdilar!», «Salim chophonini yechmoqchiga o'xshaydi!», «Hay barkalla, shovvozlar!»

o'rtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. Chavandozlarning qaysisi to'nini yechmoqda, ba'zisi otining ayilini tortmoqda va qaysi birovlar uloqning solig'ini bermoqda edilar. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to'nini menga berib, o'zi o'rta ga ot o'ynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin o'rta ga g'uj bo'la boshlagan bo'lsalar ham, hanuz uloq o'rta ga kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabrsizlanib: «Shu tobgacha tuya bo'g'izlasa ham bo'lar edi, ulog'i yaxlab qoldimi?» — deyishadilar.

Oradan talay vaqt o'tgandan keyin, bo'g'izlangan ulog'ini oldiga o'ngarib Orif sarkor va uning orqasidan boyagi mashhur chavandozlar qalpoqni chakkaga qiya qo'yib, egarga qiyshiq o'ltirib o'rta ga kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko'rganlari on: «Xoh, jonivor, bormisan!\* deyishdilar.

Oradan allakim: «Uloqning qoni yaxshi yuvildimi?» — deb so'ragan edi, Orif sarkor:

— Xotirjam! — dedi va uloqni shalq etib yerga tashladi, so'ngra xalqqa yaqinroq kelib: «0g'aynilar! Bola-chaqalarni chetga chiqaringlar, ot oyog'ida qolgudek bo'lmasin, o'zlarining ham ehtiyyotroq joyda turinglar, hayvon bilan bo'lgan ish qiyin!» — deb aytdi.

Orif sarkor xalqdan fotiha olib, otini yogurtirib to'daga ketdi. Tomoshachilar to'dadagi o'z yaqinlariga: «Bukun g'ayratlaringni ko'ramiz-da!» — deb baqirishdilar.

Uloq boshlandi...

Birisi oladi, ikkinchisi tortadi. Ikkinchisining yoniga uchinchisi va to'rtinchisi qo'shilib, birdan sakkiz tomonga tortqilashadilar, oraga chetdagi uloqchilar ham siqilishib kirib, yana uloqni buydalashadilar. Juda qiziq... har kim uloqni o'z taqimiga bosish harakatida, lekin uloqning dumidan, oyog'idan, yolidan tortuvchilar juda ham ko'p. To'dadan olib chiqish juda qiyin. Ba'zan uloqni

to'dadan olib chiquvchi ham ko'riniq qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug'ur-chuqdek yopirilishib o'n-o'n besh qadamda tutib oladilar. Yana tortish boshlanadi.

Bu yoqdagi tomoshachilar: «Taqimga bos, taqimga!», «Otning boshini qo'y, choviga qamchini shig'ab ber!», «Bo'sh kelma, mahkam tut!», «Yunganini bo'shat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!», «01ding, olding!», «Berma, chapga burul, chapga!», «Tut, qo'yma!», «Voy to'ymagur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!», «Oting harom qotsin, otmi, eshakmi — bu harom o'lquring?»... deb har xil tovushda baqirishadilar. Uloq yerga tushib ketib qolsa, tomoshabinlardan ba'zisi yugurib borib yerdan uloqni azod ko'tarib oladi, ukasimi, oshnasimi — ishqilib birorta yaqin kishisiga tutqizmoqchi bo'ladi. Lekin boshqa chavandozlar uloqni undan olmoqchi bo'lib ustiga duv yig'iladilar, u bermaslikka tirishadi, boshqalar o'rtaga sanjob qilib siqadilar. Bechora anchadan keyin oqsoqlanib yoki qo'lini silab o'rtadan arang chiqib ketadi.

Otasi bolasini, akasi ukasini tanimaydi, chang-to'zon, terlangan, pishilgan, har kim uloqni taqimiga bosish qayg'usida. Bosh yorilib, ko'z chiqqan bilan, otdan yiqilib qo'li singan bilan parvoyi-falak... Ishqilib, uloqni taqimga bosilsa bo'ldi... Taqimga bosish o'zi juda ham nash'alik-da!

Lekin taqimga bosish har kimga ham tuyassar bo'lavermaydi, taqimga ko'proq bosuvchilar boyagi chavandozlar; azoblanib, o'layozib bo'lsa ham uloqni taqimga bosgach, otga qamchi berib ellik-oltmish odim nariga qochib boradilar-da, yana orqadagilar tarafidan o'ralib olinadilar. Yana tortish.

Uloq boshlanganidan biror soat vaqt o'tgan edi. Birdan uloqchilar suv quygandek tinchib, tortish o'rnida to'planishib qoldilar. Biz, otliq-yayov tomoshabinlar ham hammamiz o'rtaga yugurishdir. Men keyinroq borganim uchun otliq-yayov xalq o'rtani sirib olgan edi. Men chekkada qoldim. Har qancha urinsam ham o'rtaga kirishning epi bo'lmanidan keyin odamlarning og'ziga qarab turdim. Lekin uloqchilar orasidagi hodisa hammaga ham noma'lum edi. Har kimning yuzida taajjub va bir-birisidan: «Nima gap?» — deb so'rashar edi.

Bir necha daqiqadan keyin: «Qimirlatmang, qimirlatmang!» — degan tovush eshitilib, xalq yana taajjubga tushdi.

— Nari bo'linglar, hovv! — deb o'rtadan birov baqirdi. Xalq bir chetlik bo'lib, yo'l ochdi.

— Nima gap, nima gap?

— Hech narsa emas... Esonboyni ot bosipti!

— Qo'rinchli emasmi?

— Yo'q, sag'al.

Kishilar bir-biriga qarab: «Falokat-falokat», — deyishdilar. Nari tur-beri tur qilib, besh-olti kishi otga bosiriq bo'lganni o'rtadan olib chiqdilar. Kishilarning ko'magi ostida keltirib, sadaning ostiga yotqizdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi, bittasi o'ziga kelarmikan, deb o'lgudek bo'lib yotgan Esonboyning yuziga suv sepib ko'rgan edi, qimir etmadni.

— Besh-olti otning tagida qoldi-da, bechora!

— o'nta otning tagida qolsa ham hech gap emas-ku, biroq qaltisroq joyidan bosganga o'xshaydi...

— Umri boqi bo'lsa hech gap emas.

«Bechora bulturgi hayitda menga yarim so'm hayitlik bergen edi. Ilohi yaxshi bo'lsin», deb ko'nglimdan o'tkazdim.

Arava keldi. Esonboy akani aravaga yotqizdilar. Akam uch-to'rtta o'rtoqlari bilan arava yonida Esonboyni kuzatib shaharga jo'nab ketdi.

— Sho'r paxta qilsin, kepak qizdirib bossin, — deb xalq chuvurlashib qoldi.

Ular jo'nagandan keyin uloq yana boshlanib ketdi. Men uloq tugaguncha tomosha qilib turdim. Lekin yaxshiki endi hech kimni ot bosmadi.

\* \* \*

Kecha meni ot qoqqan ekan, o'rninga kirishim bilan tirrakdek qotib uxbabman. Ertalab oyim: «Tur, tur tezroq, dadang kelsa nah o'ldiradi!» — deb ustidan ko'rpamni tortib tishladi. Men uyquli ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» — deb so'ragan edim, oyim:

— Esonboyning janozasida! — deb javob berdi.

Mening uyqum o'chdi.